



XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-yanvar

VII-4-2-11-155-K/25

Dang‘ara tumani

Dang‘ara tumani hokimi, 1-sektor rahbari Sh.Tojixakimov tomonidan aholi bandligini ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida 1-sektor hududida 2024- yilning 4-chorak davomida amalga oshirilgan ishlар hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishslash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5633сонли Farmoni, 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarori doirasida berilgan topshiriq va vazifalarni bajarilishi yuzasidan hududlarda yechimini kutayotgan muammolarni hal etish, aholining eng muhim hayotiy muammolarini yechish, davlat organlari bilan aholi o‘rtasida ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qator ishlар amalgaliga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5283-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8- yanvardagi “Hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sektor faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102- sonli qaroriga asosan sektorni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ishlарini tashkil etish va faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida, 2024-yilning 4-chorak davomida amalga oshirilgan ishlар hisoboti yuzasidan Dang‘ara tumani hokimi, 1-sektor rahbari Sh.Tojixakimovning hisobotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dang‘ara tumani hokimi, 1-sektor rahbari Sh.Tojixakimov tomonidan aholi bandligini ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida joriy yilning 4-chorak davomida amalga oshirgan ishlари yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, sektor rahbarlari, mutasaddi tashkilot va korxonalar, mahalliy hokimliklar tomonidan fuqarolardan tushayotgan murojaatlarni ijobjiy hal etish bo‘yicha

olib borilayotgan ishlar, jumladan, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” hamda “Yoshlar daftari”ni, “Ijtimoiy daftar”ni o‘rnatilgan tartibda yuritib borilishi yuzasidan deputatlik nazoratini o‘rnatsin. Bunda,

- har oyda amalga oshirilayotgan ishlar (tadbirlar)ni monitoring qilgan holda o‘rganib borish, natijalarini tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyalari yig‘ilishlari hamda Kengash sessiyalarida muhokama etib borish;
- har chorak yakuni bilan sektor rahbarlari, mas’ul tashkilot va korxonalar rahbarlarining tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyalari yig‘ilishlari hamda Kengash sessiyalarida axborotlarini tinglab borsin
- tumanda ijtimoiy himoyaga muxtoj kambag‘al oilalarni tadbirkorlikka jalb etish va ularni bandligini ta’minalash ishlariga alohida e’tibor qaratish orqali kambag‘allik darajasini kamaytirish hamda bu bo‘yicha muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (U.Usmonov)ga aholi bandligini ta’minalash va daromadini keskin kamayishining oldini olish, muhtoj oilalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Akramov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (D.Dadamirzayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH